


2020- yilning yanvar-sentabr oylari uchun Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

3 389,7
mlrd. soʻm


104,2 %

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatida jami **3 389,7 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,
2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda**

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2462 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 194 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **100,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **66,7 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **125,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **12,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **134,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **20,4 %**) o'sishidir.




Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.10.2019- yil	01.10.2020- yil	
Surxondaryo viloyatii	2 268	2 462	108,6
Termiz sh.	715	719	100,6
tumanlar:			
Oltinsoy	44	52	118,2
Angor	124	141	113,7
Bandixon	-	38	-
Boysun	134	153	114,2
Denov	133	141	106,0
Jarqo'rg'on	177	203	114,7
Qiziriq	136	142	104,4
Qumqo'rg'on	138	152	110,1
Muzrabot	103	115	111,7
Sariosiyo	123	136	110,6

Termiz	212	220	103,8
Uzun	51	51	100,0
Sherobod	73	81	111,0
Sho'rchi	105	118	112,4


**Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.10.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Termiz sh. (29,2 %), Termiz tumani (8,9 %) va Jarqo'rg'on (8,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **478,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **91,4** % ga bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **2,0** % punktga kamayib, **14,2** % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Sariosiyo tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **56,9** % i yoki 2019- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **87,4** %), Qumqo‘rg‘on (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **25,2** % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **92,8** %), va Termiz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,9** % i, yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **79,4** %) ga to‘g‘ri keldi.




Qurilish ishlaringning umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlaringni bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,8 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,1 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **104,4 %** ni tashkil etgan holda **2 130,4 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,0 %** ni tashkil etdi yoki **780,4 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **113,4 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **28,0** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 361,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,8 %** va **99,2 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Surxondaryo viloyati	3389,7	28,0	100,0	3361,7	100,0
Termiz sh.	906,3	16,2	57,9	890,1	26,5
tumanlar:					
Oltinsoy	58,9	-	-	58,9	1,7
Angor	133,0	-	-	133,0	4,0
Bandixon	27,2	-	-	27,2	0,8
Boysun	236,0	-	-	236,0	7,0
Denov	251,8	-	-	251,8	7,5
Jarqo'rg'on	183,3	-	-	183,3	5,4
Qiziriq	102,6	5,7	20,3	96,9	2,9
Qumqo'rg'on	120,4	-	-	120,4	3,6
Muzrabot	149,0	-	-	149,0	4,4
Sariosiyo	615,4	-	-	615,4	18,3
Termiz	193,6	-	-	193,6	5,8
Uzun	92,3	-	-	92,3	2,7
Sherobod	226,5	6,1	21,8	220,4	6,6
Sho'rchi	93,4	-	-	93,4	2,8

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-sentabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 75,7 % i yoki **2 566,4** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

75,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **437,6** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 91,4 % ni tashkil etdi

91,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 416,5** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 66,5 % ni tashkil etdi.

66,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **712,3** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 91,3 % ni tashkil etdi.

91,3 %




**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	3389,7	104,2	100,0
Termiz sh.	906,3	109,7	26,7
tumanlar:			
Oltinsoy	58,9	101,8	1,7
Angor	133,0	103,1	3,9
Bandixon	27,2	100,8	0,8
Boysun	236,0	105,1	7,0
Denov	251,8	103,4	7,4
Jarqo‘rg‘on	183,3	100,3	5,4
Qiziriq	102,6	100,2	3,0
Qumqo‘rg‘on	120,4	100,6	3,6
Muzrabot	149,0	106,7	4,4
Sariosiyo	615,4	101,3	18,2
Termiz	193,6	101,0	5,7
Uzun	92,3	101,4	2,7
Sherobod	226,5	103,1	6,7
Sho‘rchi	93,4	101,9	2,8

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarinining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,6 %** punktga kamayib, **65,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,7 %** punktga ko'payib, **34,2 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **50,9 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **6,1 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **43,0 %** (**6,1 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **6,9 %** punktga kamaydi va **11,0 %** ni tashkil etdi. Qolgan **89,0 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **6,9 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da




2019- yil

yanvar-sentabr

2020- yil

yanvar-sentabr

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel.: 76 225-65-59